MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№5

ILMIY ELEKTRON JURNALI

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovaциyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o’g’li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Hazratqulov Shahboz Boboqul o’g’li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: **№049864**

MUNDARIJA

Meyliyev Obid Raxmatullaevich	Soliqlarning budjet daromadlaridagi ahamiyatini oshirish	7
Мирзаева Матлуба Ғайбулла қизи	Тижорат банкларининг капитал базасини мустаҳкамлашнинг методологик ва амалий асосларини такомиллаштириш	14
Жабборов Насриддин Мирзаодилович, Юнусова Шохсанам Муротовна, Бебутова Зулайхо Хамидовна, Сафарова Севара Қахрамон қизи	Тошкент вилояти туристик ҳудудлари имижи модели учун барқарорлик таҳлили	19
Мухамедова Севара Абдуллаевна	Тижорат банкларида кичик бизнес лойиҳаларини кредитлашда банк таваккалчиликларини баҳолаш ва бошқариш тизими	27
Abduqayumov Elyorbek Ulug’bek o’g’li, Yo’ldosheva Oygul Zokir qizi	Janubiy Koreya kinoindustriyasining iqtisodiy rivojlanishdagi o’rni va ta’siri	33
Umarova Shahnoza	Moliyaviy faoliyat bo‘yicha baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish	40
Muydinov Xusniddin Nuriddin o‘g’li	Avtomobilsozlik korxonalarining xarajat samaradorligini ekonometrik modellashtirish	46
Akromov Shohrux Shuhrat o‘g‘li	O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini tashkil etishning zaruriyati va uning ahamiyati	57
Kurbanbayev Jurabek Eruvbayevich, Akromov Shohrux Shuhrat o‘g‘li	Auditorlik tekshiruvlarida tashqi tasdiqlardan foydalanish va ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish	66
Абдурахманов Ўрол Наврўз ўғли	Акциядорлик жамиятлари аудитида таҳлилий амалларни қўллашни такомиллаштириш	71
Sayfiddinov Sarvarbek Anvarbek o‘g‘li	Yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda kredit va investitsiya resurslarining o‘rni	80
Shodiyev Yashnarbek Baxriddin o‘g‘li	Davlat moliyaviy nazoratini modellar va metodologik yondashuvlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish	92
Muydinov Baxodirjon Numanovich	Korxonalarda ichki auditni tashkil etish va takomillashtirish	101
Mirzanov Zakir Maratovich	Paxta yetishtirish va qayta ishlash klasterlarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirish	111
Тожибоева Дилором	XXI ахборотлар асри – қарор қабул қилиш жараёнининг мураккаблашуви асри	116
Нурхонов Комилжон Товкараевич	Яшил иқтисодиётга ўтиш йўллари ва устуворликлари	124
Saydullayev Nodirbek Narzullayevich	Inflyatsion targetirlash sharoitida markaziy bank valyuta intervensiyalari strategiyasini takomillashtirish mexanizmlari	132
Хусаинов Равшан Рахимович	Сравнительный анализ налоговых систем зарубежных стран и трансформация их для Узбекистана	143
Maxkamova Nazokat Umarali qizi	O‘zbekiston iqtisodiyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning o‘rni	150
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	Temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirishning innovatsion mexanizmlari	156
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	Davlat tibbiyot tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya, amaliyot va uslubiyot	165
Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o‘g‘li	Raqamli texnologiyalar asosida budjet tashkilotlarida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish: Farg‘ona viloyati misolida	179
Xasanova Shaxzoda Sarvarq qizi	Avtomatlashtirish davrida ayollarning mehnat bozoridagi transformatsiyasi: global tendensiyalar va O’zbekistonning 2030-yilgacha imkoniyatlari	188
Abdullaeva Nilufar Javdat qizi	Бюджет ташкилотларида узоқ муддатли активлар билан боғлиқ молиялаштириш манбалари	194
Худойкулова Дилора Дилмуродовна	Обеспечение надежности аудиторских доказательств при аудите долгосрочных активов	200
To‘xtayev Umidjon Shuhrat o‘g‘li	Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari	209
Djumaniyazov Shavkat Raximovich	Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari	216
Siroj Zarina Rustambekovna	O‘zbekistonda demografik jarayonlarni statistik prognozlash va monitoring tizimini takomillashtirish	223
To‘laev Safarmurod	Korporativ mijozlarga innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishning xorijiy	229

Boymuhammad o‘g‘li	tajribasi	
Эрдонаев Аликул Халимович	Банк технологиялари ва масофавий банк хизматларининг турларидан фойдаланиш амалиёти	236
Муродов Бобиржон Ҳаётжон ўғли	Иқтисодиётда яширин меҳнат ресурслари айланмаси: иш берувчиларни масъулияти ва норасмий бандликни бартараф этишнинг тизимли ечимлари	247
Abdullayeva Shaxnoza Erkinovna	Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish	253
Саттаров Тулкин Абдихалилович	Қишлоқ хўжалиги корхоналарини молиявий барқарорлигини баҳолаш моделлари	261
Sanayev Javohir Shavkat o’g’li	Tijorat banklarida mijozning tranzaksion faolligiga asoslangan adaptiv tariflash mexanizmini takomillashtirish	271
Хасанов Сабирджан Садикович, Раимова Мадинабону Сабирджан кизи	Оценка экономической необходимости строительства ветроэнергетических установок в Узбекистане	278
Karimov Shohruh Ahmadullo o’g’li	O’zbekistonda buxgalteriya xizmatlari bozorining institutsional tuzilmasi: auditorlik va soliq maslahatchilari tashkilotlari reestrlari tahlili	286
Karimqulov Jasur Imomboyevich, Xojanov Baxadir Omirbayevich	Bank infratuzilmasi transformatsiyasi samaradorligini integral baholash metodikasini takomillashtirish	292
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	O‘zbekiston bank tizimining miqdoriy kengayishi va moliyaviy barqarorlik normativlariga rioya etish darajasi: 2017–2025 yillar tahlili	301
Олимова Қизлархон Тўра қизи	Тижорат банкларида муаммоли кредитларни эрта аниқлаш ва мониторинг тизимида мавжуд муаммоларнинг тизимли ечими	308
Xolmurotov Fozil Saribayevich	Hududiy eksportning qo'shilgan qiymati va diversifikatsiya darajasini o'lchash: Xorazm viloyatida export quality index tahlili	314
Jumaniyazov Iskandar Baxodirovich	To‘qimachilik sanoati korxonalarida xarajatlar hisobini tashkil etish, tannarxni kalkulyatsiya qilish va tahlil etish bo‘yicha xorijiy tajriba	327
Vaisov Dilshod Ibodullayevich	Kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini prognozlashning ekonometrik asoslari	333
Kabilova Zebo Babakulovna	Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda mehnat resurslaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari	341
O‘lmasxo‘jayev Zoirxo‘ja Abbos o‘g‘li	Ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt asosidagi adaptiv modellarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholash	353
Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich	Hududlarda investitsiyalar samaradorligini qisqa panel ma’lumotlari asosida o‘rta muddatga prognozlash: Toshkent viloyati misolida	358
Akhmedova Shokhistakhon	Ways to improve sustainable financing mechanisms in Uzbekistan: capital needs, pilot instruments and scenario-based projections to 2030	368
Xushvaqov Islombek Muxammadi o‘g‘li	Moliya bozorida qarz instrumentlari orqali savdolarni moliyalashtirish	381
Qudratova Shaxnoza Shuxrat qizi	Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini statistik baholash usullari va mezonlari	388
Ziyodullayev Dilshod Sherzodovich, Sharapova Mashxura Azadovna	O‘zbekistonda monetar va fiskal siyosatning inflyatsiya va iqtisodiy o‘sishga ta’siri	399
Гозиев Рзоиддин Чулпон угли, Ким Дмитрий Игнатьевич	Перестройка кадровой стратегии ритейла в эпоху цифровых технологий	406
Qodirov Humoyun Tolibjon o‘g‘li	To‘qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini boshqarishda eksportni diversifikatsiya qilish strategiyasi	413
Abdujaborova Mahmura Toshmuxamadovna	Korxona moliyaviy holatining tizimli tahlili	419
Olimova Maftuna Komil qizi	Raqamli iqtisodiyot sharoitida kadrlar bozori talab va taklifi nomutanosibligini statistik baholash	429
Маматова Эленур Рўзимурод қизи	Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини кредитлаш механизмини такомиллаштиришнинг илмий-услубий асослари	441
Xodjaniyazov Shohruh Yuldashevich	Hududiy farovonlik indeksini prognozlash: Holt modeli va qiyosiy ekonometrik baholash	450
Maxmasaidova Muslima Ubaydulla qizi	Ko‘p o’zgaruvchili regressiya modeli asosida iqtisodiy ko‘rsatgichlarning o‘zaro bog‘liqligini excel dasturi yordamida tahlil qilish	458

Юсупов А.Т.	Илмий-технологик ва иқтисодий хавфсизлик тизимида олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги (методологик, услубий ва амалий жиҳатлари)	470
Shirinov Uchqun Abduxalilovich	Ichki segmentar hisobotning tarkibi, ko‘rsatkichlari va shakllarini takomillashtirish	481
Шахабутдинова Муаттар Зиятходжаевна	Институционально-регуляторные условия формирования цифровой модели оценки кредитоспособности заёмщиков	489
Kilichev Alisher Akramovich	Mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar moliyaviy barqarorligini integral baholashning ikki blokli modeli (Entropiya vaznlari asosida)	496
Fayazov Xasan Jaxongir ugli	Behavioral and psychological factors in ai use among 15-year-old students: learning and academic performance	504
Urazbayeva Ilmira Konisbayevna	Moliyaviy kontrolling tizimida mavjud muammolar va ularning aksiyadorlik jamiyati moliyaviy samaradorligiga ta’siri	511
Ollokulova Feruza Mansurovna	Milliy iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari	518
Isamitdinova Ra'no Rahimjanovna, Togayev Salim Sobirovich	Investitsiya loyihalari qiymati va muddati monitoringini o'zlashtirilgan qiymat usuli asosida takomillashtirish	525
Alijonov Jamshid Alijon o‘g‘li	Qurilish korxonalarining investitsion salohiyatini kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish	533
Jafarova Marjona Jafarovna, Xusanova Dilorom Shavkatovna	O’zbekistonda inflatsiya darajasining pasayish sabablari	539
Axmedova Mavluda Shavkatovna	Tasodifiy tebranishlar, xo‘jaliklararo geterogenlik va samarasizlikni ajratib baholovchi panel modellar tizimi	544
Baxromov Azizbek Alisher o‘g‘li	Raqamli iqtisodiyot sharoitida to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlari	551
Гулямова Асия Нурутдиновна	Рынок рассрочки (BNPL) и розничное кредитование в Узбекистане: рост, скрытая стоимость и риски закредитованности	557
Adhamova Gulshoda Yaxyo qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida rahbarlik uslublarining jamoa samaradorligi va loyiha muvaffaqiyatiga ta’sirini baholash	563
Eshmurodov Sulton Suvonqulovich	Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining aktiv va passivlarini muddatlar bo‘yicha muvofiqlashtirish yo‘llari	570
Alikulov Azamat Tuygunovich	O‘zbekistonda sukuk bozorini shakllanishida malayziya tajribasidan foydalanish imkoniyatlari	580
Madaminov G‘ayrat Madiyarovich	Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishning xizmat samaradorligi va kadrlar barqarorligiga ta’sirini ekonometrik baholash	587
Абдуллаева Шахло Рустамовна	Цифровая трансформация бизнес-процессов как фактор повышения эффективности предприятий	593
Нуралиева Мукаддас Мамуровна	Денежные переводы трудовых мигрантов как фактор макроэкономической устойчивости Республики Узбекистан: возможности и риски	601
Азимова Феруза Маликовна	Технологическое развитие регионов Узбекистана и факторы его дифференциации	607
Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich	O‘zbekiston sug‘urta bozorining moliyaviy barqarorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish	616
Azizova Zilola Lochinovna	Budjet tashkilotlarida qurilish-ta’mirlash xarajatlari hisobini takomillashtirish	626
Городилова Мария Владимировна	Цифровизация в энергетической отрасли: потенциал и инновационные тренды развития, влияние на экономику	635
Abdusalimov Lazizbek Otabek o‘g‘li	Mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish	645
Бобожонов Азимжон Акмал ўғли, Ортиков Нодиржон Хайруллоевич	Нақдсиз ҳисоб-китоблар трансформацияси: ПФ-246-сонли фармоннинг тадбиркорлик муҳитига ва яширин иқтисодиёт улушини қисқартиришга таъсири (Эмпирик ва институционал таҳлил	653
Norquchqorov Abdulaziz Ziyodulla o‘g‘li	Davlat oliy ta’lim tashkilotlarida smetalar ijrosi hisobining nazariy-institutsional asoslari	662

DAVLAT OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA SMETALAR IJROSI HISOBINING NAZARIY-INSTITUTSIONAL ASOSLARI

Norquchqorov Abdulaziz Ziyodulla o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Davlat auditi va budjet hisobi” kafedrasi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: a.norquchqorov@tsue.uz
ORCID ID: https://orcid.org/0000-0002-8207-127X

Annotatsiya. *Maqolada davlat oliy ta’lim tashkilotlarida smetalar ijrosi hisobi uch qatlam kesimida tahlil qilingan: ta’lim xizmatining iqtisodiy tabiati, budjetlashtirish modeli va hisobni tartibga soluvchi me’yoriy tizim. Oliy ta’lim xizmati aralash ne’mat ekani va vaqt davomida ko‘rsatilishi hisobga olinib, undan kelib chiqadigan hisob talablari amaldagi budjet hisobi standartlari, schyotlar rejasi va hisobot shakllari bilan solishtirildi. Empirik qism Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hamda Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy institutining 2021–2025-yillardagi hisobotlariga asoslangan. Har ikki tashkilotda budjet mablag‘lari daromadlarning kamroq qismini tashkil etishi, to‘lov-kontrakt tushumlarining kassa usulida tan olinishi esa yillik moliyaviy natijani keskin tebratishi aniqlandi. 19-sonli BHS «Daromad» bilan schyotlar rejasi va hisobot shakllari o‘rtasidagi uzilish ko‘rsatib berildi. Natijada uchta yo‘nalishdagi me’yoriy takliflar asoslandi.*

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim xizmati, aralash ne’mat, smetalar ijrosi hisobi, dasturiy budjetlashtirish, budjet hisobi standartlari, IPSAS 47, to‘lov-kontrakt, daromadni tan olish.*

THEORETICAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ACCOUNTING FOR THE EXECUTION OF BUDGET ESTIMATES IN PUBLIC HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Norquchqorov Abdulaziz Ziyodulla ugli

Tashkent State University of Economics, Department of Public Audit and Budget Accounting, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
E-mail: a.norquchqorov@tsue.uz
ORCID ID: https://orcid.org/0000-0002-8207-127X

Annotation. *The article analyses budget estimate execution accounting in state higher education institutions across three layers: the economic nature of the educational service, the budgeting model and the regulatory framework of accounting. Treating higher education as a mixed good delivered over time, the study derives the accounting requirements that follow from it and compares them with the current budget accounting standards, the chart of accounts and reporting forms. The empirical part draws on the 2021–2025 reports of the Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi and the National Institute of Pedagogical Skills named after Abdulla Avloniy. In both institutions budget funding forms the smaller part of revenue, while cash-based recognition of tuition receipts makes the annual financial result fluctuate sharply. A gap is shown between Budget Accounting Standard No. 19 “Revenue” on the one hand and the chart of accounts and reporting forms on the other. Regulatory proposals in three directions are substantiated.*

Keywords: *higher education service, mixed good, budget estimate execution accounting, programme budgeting, budget accounting standards, IPSAS 47, tuition fees, revenue recognition.*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ТЕОРЕТИКО-ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ УЧЕТА ИСПОЛНЕНИЯ СМЕТ В ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Норкучкоров Абдулазиз Зиёдулла угли
Ташкентский государственный экономический университет,
кафедра «Государственный аудит и бюджетный учет»,
доктор философии (PhD) по экономическим наукам
E-mail: a.norquchqorov@tsue.uz
ORCID ID: https://orcid.org/0000-0002-8207-127X

Аннотация. *В статье учет исполнения смет в государственных организациях высшего образования анализируется в разрезе трех взаимосвязанных аспектов: экономической природы образовательных услуг, модели бюджетирования и нормативной системы регулирования учета. С учетом того, что услуги высшего образования относятся к смешанным благам и предоставляются в течение определенного периода времени, вытекающие из этого требования к бухгалтерскому учету сопоставлены с действующими стандартами бюджетного учета, планом счетов и формами отчетности. Эмпирическая часть исследования основана на отчетных данных Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми и Национального института педагогического мастерства имени Абдуллы Авлони за 2021–2025 годы. Установлено, что в обеих организациях бюджетные средства составляют меньшую долю совокупных доходов, а признание поступлений от платно-контрактного обучения по кассовому методу приводит к существенным колебаниям годового финансового результата. Выявлены несоответствия между Стандартом бюджетного учета № 19 «Доходы», планом счетов и формами финансовой отчетности. По результатам исследования обоснованы нормативные предложения по трем направлениям.*

Ключевые слова: *услуги высшего образования, смешанное благо, учет исполнения смет, программное бюджетирование, стандарты бюджетного учета, IPSAS 47, платно-контрактное обучение, признание доходов.*

Kirish

O‘zbekistonda oliy ta’lim so‘nggi besh yilda misli ko‘rilmagan sur’atda kengaydi. Talabalar soni 2021/2022-o‘quv yilidagi 808,4 ming nafardan 2025/2026-o‘quv yili boshida 1 535,0 ming nafarga yetdi [1], yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi esa 2025-yilda 51,3 foizni tashkil etib, budjet dasturidagi 44 foizlik mo‘ljaldan oshib ketdi [2]. Kontingent bilan birga moliyaviy oqimlar ham ko‘paydi: davlat granti, to‘lov-kontrakt, rivojlantirish jamg‘armasi, homiylik va xalqaro grantlar bir tashkilot hisobida yonma-yon yuritilmoqda.

Shu davrda moliyalashtirishning institutsional asoslari ham o‘zgardi. Prezidentning 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-son qarori bilan bir qator davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berildi [3]. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-son qarori bilan tasdiqlangan strategiya 2030-yilga qadar to‘liq dasturiy budjetlashtirishga o‘tishni ko‘zda tutadi [4]. 2026-yilda esa daromadni ijro majburiyatlari bajarilishiga qarab tan olishni talab etuvchi 19-sonli BHS «Daromad» kuchga kirdi [5].

Muallifning bosh hisobchi sifatidagi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu uch o‘zgarish amaliyotda bir-biridan uzilgan holda kechmoqda. Moliyalashtirish mexanizmi yangilangan, budjet dasturlari vazirlik darajasida ishlay boshlagan, standart qabul qilingan, ammo tashkilot buxgalteriyasidagi registrlar va hisobot shakllari deyarli avvalgicha qolgan. Ilmiy adabiyotda ham bu masalalar odatda alohida ko‘riladi: iqtisodchilar ta’limning ne’mat sifatidagi tabiatini, budjet mutaxassislari smeta va dasturlarni, hisobchilar esa schyotlar va o‘tkazmalarni tadqiq etadi.

Maqolaning maqsadi ta’lim xizmatining iqtisodiy tabiati, budjetlashtirish modeli va hisobni tartibga solish tizimi o‘rtasidagi muvofiqlikni baholash hamda smetalar ijrosi to‘g‘risidagi axborot

qaysi bo‘g‘inda uzilayotganini aniqlashdan iborat. Bunda quyidagi savollarga javob izlandi: xizmatning qaysi xususiyatlari hisobga alohida talab qo‘yadi; ular budjetlashtirish va me’yoriy hujjatlarda qanday aks etgan; tafovutlar tashkilot hisobotlarida qanday raqamli iz qoldirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Ne’matlarni iste’molda raqobatsizlik va istisno qilib bo‘lmaslik belgilari bo‘yicha ajratish P.Samuelson nomi bilan bog‘liq [6]. R.Masgreyv jamiyat uchun foydaliligi individual baholardan yuqori bo‘lgan «munosib ne’matlar» toifasini kiritib, davlatning bunday ne’matlarni rag‘batlantirishini asoslagan [7]. Oliy ta’limga bu mezonlar qo‘llanganda u na sof ommaviy, na sof xususiy ne’mat bo‘lib chiqadi: o‘quv o‘rni cheklangan va tanlov yoki to‘lov orqali beriladi, natijasi esa bitiruvchining shaxsiy daromadidan tashqariga chiqadi. S.Marginson zamonaviy universitetni shaxsiy va ijtimoiy natijani bir vaqtda yaratuvchi «umumiy manfaat» sifatida talqin qiladi [8].

Xarajatlarni kim qoplashi masalasi D.B.Jonstonning cost-sharing konsepsiyasida tizimlashtirilgan: oliy ta’lim xarajatlari soliq to‘lovchilar, talabalar, oilalar va homiylar o‘rtasida taqsimlanadi [9]. N.Barr shaxsiy foyda mavjud ekan, xarajatning bir qismini bitiruvchiga yuklash adolatli ekanini, ammo bu kirish imkoniyatini toraytirmasligi kerakligini ko‘rsatgan [10]. Bu qarashlar davlat granti va to‘lov-kontrakt shakllarining birga mavjudligini nazariy jihatdan izohlaydi, hisob uchun esa bir xizmat bir necha manbadan qoplanadi degan muhim xulosani beradi.

Budjetlashtirish nazariyasida A.Shik budjet islohotlari nazorat, boshqaruv va rejalashtirish ustuvorliklari orqali ketma-ket rivojlanganini ko‘rsatgan [11]. OECD materiallarida natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish budjet qarorlarida resurslar va natijalar haqidagi axborotdan tizimli foydalanish sifatida ta’riflanadi [12], M.Robinson tahriridagi tadqiqot esa uning bir nechta shaklini, jumladan natija axboroti faqat taqdim etiladigan va mablag‘ hajmi bevosita natijaga bog‘lanadigan shakllarni farqlaydi [13]. J.Daymondning rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun tavsiyasi tadqiqotimiz uchun ayniqsa muhim: mablag‘ni natijaga bog‘lashdan oldin hisob tizimi dastur xarajatlarini ishonchli o‘lchay olishi kerak [14].

Hisob jihatidan yaqin yillardagi asosiy xalqaro yangilik IPSAS 47 «Daromad» standarti bo‘lib, u 2026-yil 1-yanvardan kuchga kirgan va majburiy kelishuvlardan olingan daromadni ijro majburiyatlari bajarilishiga qarab tan olishni belgilaydi [15]. Universitetlar hisobi uchun tarmoq talqinlari ham mavjud: Buyuk Britaniyada oliy ta’lim bo‘yicha SORP ta’lim to‘lovlari, grantlar va xayriya mablag‘larini tan olish tartibini alohida yoritadi [16], AQShda GASB 35-son standarti davlat universitetlari uchun hisoblash usulidagi hisobot va rahbariyatning tahliliy sharhini talab qiladi [17].

Milliy adabiyotda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobi metodologiyasi A.A.Ostonokulov tomonidan chuqur tadqiq etilgan va g‘aznachilikda kassa usuli, tashkilot hisobida esa kassa va hisoblash usullari uyg‘unligi qo‘llanishi ko‘rsatilgan [18]. Muallifning avvalgi tadqiqotida oliy ta’lim muassasalarida smetalar ijrosi hisobi va hisobotini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan [19]. Shunga qaramay, ta’lim xizmatining iqtisodiy xususiyatlari, dasturiy budjetlashtirish talablari va 2026-yilda yangilangan standartlar bir tahliliy zanjirda solishtirilmagan. Mazkur maqola shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot uch bosqichda olib borildi. Dastlab nazariy adabiyotlar asosida oliy ta’lim xizmatining hisobga ta’sir qiluvchi xususiyatlari ajratildi va har biri uchun hisobdan kutiladigan axborot shakllantirildi. So‘ngra Budjet kodeksi [20], «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonun [21], PQ-61-son qaror [3], 210-son qaror [4], 2-sonli BHS «Yagona schyotlar rejasi» [22], 3-sonli BHS «Budjet hisoboti» [23], 19-sonli BHS «Daromad» [5] va Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma [24] matnlari ushbu talablar bilan qiyoslandi. Qiyoslash natijasida har bir talab uchun me’yoriy vosita mavjudligi yoki yo‘qligi qayd etildi.

Uchinchi bosqichda aniqlangan uzilishlar ikki xil profildagi tashkilot ma’lumotlarida tekshirildi. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU) to‘lov-kontrakt tushumlari salmoqli bo‘lgan yirik universitet, Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti (keyingi o‘rinlarda – institut) esa asosan budjet va rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan faoliyat yuritadi. Ularning 2021–2025-yillar uchun moliyaviy faoliyat natijalari to‘g‘risidagi hisobotlari hamda TATUning to‘lov-kontrakt mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobotlari (bitta shaxsiy g‘azna hisobvarag‘i bo‘yicha) tahlil qilindi. Makrodarajadagi ma’lumotlar Milliy statistika qo‘mitasi [1] va Hisob palatasi xulosalaridan [2] olindi.

Hisobotlardagi mutlaq ko‘rsatkichlardan muallif uchta nisbiy ko‘rsatkich hisobladi: budjet mablag‘larining jami daromaddagi ulushi (budjetdan moliyalashtirish / jami daromad × 100), xarajatlarning daromad bilan qoplanish darajasi (jami daromad / jami haqiqiy xarajat × 100) hamda to‘lov-kontrakt hisobvarag‘idagi yil oxiri qoldig‘ining yillik tushumlarga nisbati. Nisbatlar mlrd so‘mda yaxlitlangan ma’lumotlar asosida hisoblangani sababli ular birlamchi hisobot raqamlaridan 0,1 punktgacha farq qilishi mumkin.

Tahlil va natijalar

Nazariy tahlil oliy ta’lim xizmatining hisob uchun ahamiyatli beshta xususiyatini ajratishga imkon berdi. Ularning har biri budjetlashtirishda muayyan shaklga ega, me’yoriy tizimda esa to‘liq yoki qisman qoplangan. 1-jadvalda bu bog‘lanish zanjir ko‘rinishida berilgan: oxirgi ustun hisob axborotida hozircha yopilmagan bo‘g‘inni ko‘rsatadi.

1-jadval

Ta’lim xizmati xususiyatlari, budjetlashtirish shakllari va me’yoriy ta’minot o‘rtasidagi muvofiqlik*

Xizmat xususiyati	Budjetlashtirishdagi ifodasi	Me’yoriy vosita	Hisobdagi uzilish
Aralash moliyalashtirish (davlat va xususiy manbalar)	Xarajatlar smetasi hamda daromadlar va xarajatlar smetasi	Budjet kodeksi, 3-modda; 2-sonli BHS manbalar bo‘yicha subschyotlari	Manbalar bo‘yicha hisob bor, ta’lim dasturi kesimidagi tannarx yo‘q
Vaqt davomida ko‘rsatilish	O‘quv yili ikki moliya yilini kesib o‘tadi, to‘lov bo‘lib-bo‘lib undiriladi	19-sonli BHS: vaqt davomida tan olish	Shartnoma majburiyati (kelgusi davr daromadi) subschyoti mavjud emas
Ijobiy tashqi samaralar	Vazirlik budjet dasturlari va maqsadli indikatorlar	Budjet kodeksi, 14, 22-moddalar; dasturiy budjetlashtirish nizomi	Indikator tashkilot xarajati bilan bog‘lanmagan
Axborot asimmetriyasi	Akkreditatsiya, reyting, natijaga bog‘liq moliyalashtirish	3-sonli BHS hisobot shakllari	Reja va ijro tafovuti izohlanmaydi, natija ko‘rsatkichi yo‘q
Moliyaviy mustaqillik	Bir talabaga xarajat normativi asosida moliyalashtirish	PQ-61-son qaror	Yo‘riqnoma registrlari kassa nazoratiga mo‘ljallangan

**Manba: [3; 5; 6–10; 20; 22; 23] asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Jadvaldagi beshta zanjirdan ikkitasi hisob uchun hal qiluvchi. Vaqt davomida ko‘rsatilish xususiyati daromadni tan olish paytini belgilaydi va bevosita moliyaviy natijaga ta’sir qiladi. Aralash moliyalashtirish esa bir xizmat qiymatining bir necha manba hisobidan qoplanishini anglatadi. Bu holat ta’lim dasturi kesimida tannarx aniqlanmaguncha to‘lov-kontrakt narxining asosliligini baholashga imkon bermaydi. Har ikki zanjir bo‘yicha me’yoriy talab yuqori darajada

qo‘yilgan, lekin uni amalga oshiruvchi hisob vositasi quyi darajada yaratilmagan.

Ikki tashkilot hisobotlari asosida hisoblangan nisbiy ko‘rsatkichlar 2-jadvalda keltirilgan. Ular «budjet tashkiloti» maqomi bilan moliyaviy resurslarning haqiqiy tarkibi o‘rtasidagi farqni yaqqol ko‘rsatadi.

2-jadval

Tadqiqot obyektlari daromadlari tarkibi va xarajatlarning daromad bilan qoplanishi, foizda*

Ko‘rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
TATU					
Budjet mablag‘lari ulushi	22,1	19,5	23,0	24,6	19,6
To‘lov-kontrakt daromadlari ulushi	14,1	65,1	51,4	52,9	46,3
Rivojlantirish jamg‘armasi ulushi	64,0	15,2	25,7	21,5	29,4
Xarajatlarning daromad bilan qoplanishi	76,3	161,9	172,8	96,2	135,6
Institut					
Budjet mablag‘lari ulushi	58,2	17,0	20,8	39,4	49,8
Rivojlantirish jamg‘armasi ulushi	41,8	83,0	79,2	60,6	50,2
Xarajatlarning daromad bilan qoplanishi	83,0	136,8	97,5	104,5	92,8

**Manba: tadqiqot obyektlarining 2021–2025-yillar uchun moliyaviy faoliyat natijalari to‘g‘risidagi hisobotlari (3-sonli BHS, 2-ilova) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.*

TATUda budjet mablag‘larining ulushi besh yil davomida 19,5–24,6 foiz oralig‘ida qoldi, daromadlarning qolgan to‘rtdan uch qismdan ortig‘i to‘lov-kontrakt va rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan shakllandi. Institutda bu ko‘rsatkich 17,0 foizdan 58,2 foizgacha o‘zgargan, ya’ni budjetdan tashqari tushumlarning yildan yilga o‘zgarishi tarkibni keskin siljitgan. Daromadlarning mutlaq hajmi TATUda 127,4 mlrd so‘mdan 278,7 mlrd so‘mga ko‘paygan bo‘lsa-da, xarajatlar bilan nisbat yillar kesimida barqaror bo‘lmagan (1-rasm).



1-rasm. TATU daromadlari va haqiqiy xarajatlarining dinamikasi, mlrd so‘m*

**Manba: TATUning 2021–2025-yillar uchun moliyaviy faoliyat natijalari to‘g‘risidagi hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Rasmda 2021 va 2024-yillarda xarajatlar daromaddan oshgani, 2022, 2023 va 2025-yillarda esa daromad xarajatlardan 72–82 mlrd so‘mga ko‘p bo‘lgani ko‘rinadi. Agar bu natijani faoliyat samaradorligining o‘lchovi deb qabul qilsak, universitet bir yili zarar bilan, keyingi ikki yili esa katta profitsit bilan ishlagan bo‘lib chiqadi. Besh yillik yig‘indi esa boshqacha manzarani beradi: jami daromad 963,7 mlrd so‘m, jami haqiqiy xarajat 782,9 mlrd so‘m, qoplanish darajasi 123,1 foiz. Yillik ko‘rsatkichlarning 76,3 foizdan 172,8 foizgacha sakrashi uzoq muddatli moliyaviy holatni emas, tushum va xarajatlarning qaysi yilga yozilganini ko‘proq aks ettiradi.

Ikki tashkilotda budjet ulushining dinamikasi 2-rasmda solishtirilgan. Universitetda ulush

deyarli o‘zgarmagan, institutda esa 2022-yildan keyin yana o‘sib, 2025-yilda jami daromadning yarmiga yaqinlashgan.



2-rasm. Budjet mablag‘larining tadqiqot obyektlari jami daromadlaridagi ulushi, foizda*

**Manba: 2-jadval ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Bu natija amaliy jihatdan muhim xulosaga olib keladi: smetalar ijrosi hisobini faqat budjet mablag‘lari, ya’ni xarajatlar smetasi doirasida ko‘rib chiqish tashkilot resurslarining kichik qismini qamraydi. Rivojlantirish jamg‘armasi va to‘lov-kontrakt mablag‘lari daromadlar va xarajatlar smetasi orqali rejalashtiriladi, ammo aynan ularda daromadni tan olish muammosi eng keskin namoyon bo‘ladi.

Moliya yili 1-yanvardan 31-dekabrgacha, o‘quv yili esa sentyabrdan iyungacha davom etadi. Hisobot sanasiga kelib birinchi semestr xizmati asosan ko‘rsatilgan, ikkinchi semestr uchun to‘langan mablag‘lar esa hali xizmat bilan qoplanmagan bo‘ladi. TATUning to‘lov-kontrakt hisobvarag‘i bo‘yicha har yil oxirida qolgan qoldiqning yillik tushumlarga nisbati 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. TATU to‘lov-kontrakt hisobvarag‘ida yil oxiridagi qoldiqning yillik tushumlarga nisbati, foizda*

**Manba: TATUning 2021–2025-yillar uchun to‘lov-kontrakt shaklida o‘qitishdan tushgan mablag‘lar harakati to‘g‘risidagi hisobotlari (bitta shaxsiy g‘azna hisobvarag‘i bo‘yicha) asosida muallif tomonidan hisoblangan.*

Besh yil davomida bu nisbat 31,1 foizdan past tushmagan va 2022-yilda 43,6 foizga yetgan. 2025-yilda tushumlarning 46,2 mlrd so‘mi, ya’ni 39,6 foizi o‘tgan o‘quv yili kontrakt summalariga to‘g‘ri kelgan. Boshqacha aytganda, bir moliya yilida qayd etilgan pul mablag‘ining uchdan bir qismga yaqini boshqa davrda ko‘rsatilgan yoki ko‘rsatiladigan xizmat uchun to‘langan. Talabalar to‘lovni to‘rt muddatda teng ulushlarda amalga oshirishi sababli tushum oqimi xizmat ko‘rsatish grafigiga mos kelmaydi [19]. Kassa usulida bu summalar to‘liq joriy yil daromadiga o‘tkazilgani

uchun 1-rasmdagi tebranish yuzaga keladi. IPSAS 47 va 19-sonli BHS mantiqida esa hisobot sanasidagi ko‘rsatilmagan xizmat uchun olingan summa talabalar oldidagi majburiyat sifatida aks etishi kerak [5; 15].

Me’yoriy tizimdagi uzilishlar

Budjet hisobi standartlari 2016-yildan boshlab shakllanmoqda va hozir amalda bo‘lgan 16 ta standartdan 15 tasi xalqaro analogga ega. 1-sonli BHS «Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar» va 19-sonli BHS «Daromad» 2026-yilda qabul qilingan. 19-sonli BHS majburiy kelishuvsiz operatsiyalar (soliqlar, beg‘araz transfertlar, homiylik) va majburiy kelishuvlar asosidagi operatsiyalardan olinadigan daromadni farqlaydi; ikkinchi turdagi daromad ijro majburiyati vaqt davomida yoki ma’lum paytda bajarilishiga qarab tan olinadi [5]. To‘lov-kontrakt shartnomasi majburiy kelishuvdir, semestr bo‘yi davom etadigan o‘qitish esa uzluksiz bajariladigan ijro majburiyati hisoblanadi.

Biroq standart talabi hisob vositalariga hali yetib bormagan. 2-sonli BHSda to‘lov-kontrakt summasining hisoblanishi 153 600 subschyoti debeti va 520 150 subschyoti kreditida, pul tushumi esa 102 409 subschyoti debetida aks ettiriladi [22]. Daromad qaysi paytda hisoblanishi (shartnoma tuzilganda, to‘lov muddatida yoki xizmat ko‘rsatilganda) aniq belgilanmagan, ko‘rsatilmagan xizmat uchun olingan summani aks ettiruvchi subschyot esa nazarda tutilmagan. 3-sonli BHS hisobotlarni hisoblash metodi bo‘yicha tuzishni belgilasa-da, smeta ijrosi shakllari kassa va haqiqiy xarajatlar ustunlari hamda iqtisodiy tasnif moddalari asosida tuzilgan [23]. 2010-yilda qabul qilingan yo‘riqnoma esa memorial order shaklidagi registrlarni nazarda tutadi va asosan kassa ijrosini nazorat qilishga mo‘ljallangan [24].

Budjetlashtirish darajasida ham shunga o‘xshash holat kuzatiladi. Hisob palatasining 2025-yil yakunlari bo‘yicha xulosasiga ko‘ra, vazirlik va idoralarga belgilangan 715 ta maqsadli indikatorning 80 foizi to‘liq bajarilgan, ammo 44 ta vazirlik va idoraning 19 tasida indikatorlar rivojlantirish dasturlari emas, budjetdan saqlash xarajatlari asosida belgilangan [2]. Oliy ta’lim tizimi bo‘yicha budjet ijrosi 2025-yilda 95,7 foizni tashkil etgan, lekin indikatorga qancha mablag‘ evaziga erishilgani tashkilot hisobidan aniqlanmaydi. Uch darajadagi uzilishlar va ularning hisobotdagi umumiy oqibati 4-rasmda umumlashtirilgan.



4-rasm. Smetalar ijrosi hisobidagi nomuvofiqliklarning darajalar bo‘yicha manbalari va oqibatlari*

**Manba: muallif ishlanmasi.*

Sxemadan ko‘rinib turibdiki, uchala daraja oxir-oqibat bir nuqtada, ya’ni hisobot axborotida tutashadi. Iqtisodiy darajadagi xususiyat (xizmatning davomiyligi) me’yoriy darajada tan olingan, budjetlashtirish darajasidagi talab (natija qiymatini o‘lchash) esa strategiyada belgilangan. Ularning hech biri tashkilot buxgalteriyasi yuritadigan registr va hisobot shaklida o‘z ifodasini topmagan.

Muhokama

Olingan natijalarni xorijiy tajriba bilan solishtirish ikki jihatni ko‘rsatadi. Buyuk Britaniya va AQShda universitetlar umumiy davlat sektori yoki tijorat standartlariga tayanadi, ammo ular uchun alohida tarmoq talqini mavjud [16; 17]. Ta’lim to‘lovlarini qaysi davrda tan olish masalasi umumiy standart matnidan emas, aynan shu tarmoq hujjatidan aniq javob topadi. O‘zbekistonda esa oliy ta’limga xos qoidalar schyotlar rejasidagi bir necha subschyot va budjet hisobotidagi to‘lov-kontrakt shakli bilan cheklangan. Moliyaviy mustaqil tashkilotlar soni ortib borayotgan sharoitda bunday hujjatning yo‘qligi bir standartning turli universitetlarda turlicha qo‘llanishiga olib kelishi mumkin.

J.Daymond tavsiya etgan ketma-ketlik nuqtai nazaridan ham natijalar diqqatga sazovor [14]. Natijaviy budjetlashtirishga o‘tish rejasi mavjud, lekin xarajatlarni dasturlar va xizmatlar kesimida o‘lchaydigan hisob infratuzilmasi hali shakllanmagan. A.Shik ogohlantirganidek, natija ko‘rsatkichlari mexanik qoida emas, tahliliy vosita sifatida ishlatilganda foyda beradi [11]. Tahliliy vosita bo‘lishi uchun esa indikator bilan unga sarflangan resurs bir hisob ma’lumotlari bazasida uchrashishi zarur.

Hisoblash usuliga to‘liq o‘tish buxgalteriya xizmati yuklamasini oshiradi degan e’tiroz amaliyotchilar orasida tez-tez eshitiladi. Fikrimizcha, oliy ta’lim uchun bu yuklama nisbatan kichik: talabalar kontingenti, shartnoma summalari va semestr jadvali tashkilotning axborot tizimlarida allaqachon yuritiladi, oyma-oy daromad hisoblash esa ularga asoslangan oddiy hisob-kitobdir. Bundan farqli ravishda, daromadni kassa usulida tan olishning narxi yuqori: 2-jadvaldagi yillik qoplanish ko‘rsatkichi kuzatuv kengashiga tashkilot moliyaviy barqarorligi haqida noto‘g‘ri signal beradi. Aniqlangan uzilishlarni bartaraf etish bo‘yicha muallif takliflari 3-jadvalda tizimlashtirilgan.

3-jadval

Smetalar ijrosi hisobini tartibga solishni takomillashtirish yo‘nalishlari*

Yo‘nalish	O‘zgartiriladigan hujjat	Taklif mazmuni	Kutilayotgan axborot samarasi
Daromadni tan olish	2-sonli BHS «Yagona schyotlar rejasi»	«Ta’lim xizmatlari bo‘yicha shartnoma majburiyatlari» subschyoti; 520 150 subschyotida oyma-oy hisoblash	Moliyaviy natija davrlarga to‘g‘ri taqsimlanadi
Hisobot axboroti	3-sonli BHS, 2-son shakl	IPSAS 24 tamoyillari asosida reja–ijro tafovutlari izohi va budjet dasturlari ilovasi	Smeta ijrosi natija ko‘rsatkichlari bilan bog‘lanadi
Hisob registrlari	Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma	Registrlarni amaldagi standartlarning tan olish qoidalariga moslashtirish	Kassa va hisoblash mantiqi o‘rtasidagi ziddiyat yo‘qoladi
Tarmoq talqini	Oliy ta’lim tashkilotlari uchun uslubiy ko‘rsatma (yangi)	To‘lov-kontrakt, grantlar, qo‘shma dasturlar va stipendiyalarni tan olish tartibi	Hisobotlar tashkilotlar o‘rtasida qiyoslanadigan bo‘ladi

**Manba: [5; 15; 16; 22–25] asosida muallif ishlanmasi.*

Tadqiqotning cheklovlarini ham qayd etish lozim. Empirik qism ikki tashkilot bilan chegaralangan, TATU bo‘yicha to‘lov-kontrakt harakati esa bitta shaxsiy g‘azna hisobvarag‘i asosida baholangan. Shu sababli raqamlar butun tizim uchun umumlashtirilmaydi, ammo aniqlangan mexanizm (kassa tushumi va xizmat davri nomuvofiqligi) o‘quv yili sentyabrda boshlanadigan har qanday davlat oliy ta’lim tashkilotiga xosdir.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot oliy ta’lim xizmatining aralash tabiati va vaqt davomida ko‘rsatilishi smetalar ijrosi hisobiga ikki asosiy talab qo‘yishini ko‘rsatdi: mablag‘larni manbalar va ta’lim dasturlari bo‘yicha ajratib hisobga olish hamda daromadni xizmat ko‘rsatilishiga qarab davriy tan olish. Bu talablar nazariyada ham, xalqaro standartlarda ham aniq ifodalangan.

Tadqiqot obyektlarida budjet mablag‘lari daromadlarning kamroq qismini tashkil etgan: TATUda 19,5–24,6 foiz, institutda 17,0–58,2 foiz. TATUda xarajatlarning daromad bilan yillik qoplanishi 76,3–172,8 foiz oralig‘ida tebrangan, besh yillik o‘rtacha qoplanish esa 123,1 foizni tashkil etgan. To‘lov-kontrakt hisobvarag‘ida yil oxirida qolgan qoldiq har yili tushumlarning 31,1–43,6 foiziga teng bo‘lgan. Bu tebranishning asosiy manbai kassa tushumi bilan xizmat davri o‘rtasidagi vaqt farqidir.

Me’yoriy tizimda talab va vosita o‘rtasida uzilish mavjud: 19-sonli BHS daromadni vaqt davomida tan olishni talab qilmoqda, 2-sonli BHSda esa shartnoma majburiyatini aks ettiruvchi subschyot yo‘q, 3-sonli BHS shakllari natija ko‘rsatkichlari va tafovutlar izohini o‘z ichiga olmaydi, 2010-yilgi yo‘riqnoma registrlari kassa nazoratiga mo‘ljallangan. Budjetlashtirish darajasidagi «ikki qavatli» tuzilma ham shu uzilishni takrorlaydi.

Shularga asoslanib quyidagilar taklif etiladi: 2-sonli BHSga «Ta’lim xizmatlari bo‘yicha shartnoma majburiyatlari» subschyotini kiritish va to‘lov-kontrakt daromadini oyma-oy hisoblash tartibini belgilash; 2-son shaklni IPSAS 24 tamoyillari [25] asosida reja–ijro tafovutlari izohi va budjet dasturlari ilovasi bilan to‘ldirish; yo‘riqnomani amaldagi standartlarga moslashtirish va oliy ta’lim tashkilotlari uchun tarmoq uslubiy ko‘rsatmasini ishlab chiqish. Ushbu choralar 2030-yilgacha dasturiy budjetlashtirishga o‘tish uchun zarur bo‘lgan hisob asosini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Talabalar soni 1,5 mln nafarga yetdi: ayollar ulushi yuqori. – 2026. – 17-iyun. – URL: https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/68784-talabalar-soni-1-5-mln-nafarga-etdi-ajollar-ulushi-yu-ori-2
2. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi. 2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobot yuzasidan xulosa. – Toshkent, 2026.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2025-yil 8-apreldagi 210-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining «O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (19-sonli BHS) «Daromad»ni tasdiqlash haqida»gi 2026-yil 13-maydagi 363-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3857, 2026-yil 18-iyun) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-8277785
6. Samuelson P.A. The Pure Theory of Public Expenditure // The Review of Economics and Statistics. – 1954. – Vol. 36, No. 4. – P. 387–389.
7. Musgrave R.A. The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy. – New York: McGraw-Hill, 1959. – 628 p.
8. Marginson S. Higher Education and the Common Good. – Melbourne: Melbourne University Publishing, 2016. – 368 p.

9. Johnstone D.B. The economics and politics of cost sharing in higher education: comparative perspectives // Economics of Education Review. – 2004. – Vol. 23, No. 4. – P. 403–410.

10. Barr N. Higher Education Funding // Oxford Review of Economic Policy. – 2004. – Vol. 20, No. 2. – P. 264–283.

11. Schick A. The Road to PPB: The Stages of Budget Reform // Public Administration Review. – 1966. – Vol. 26, No. 4. – P. 243–258.

12. OECD. Performance Budgeting in OECD Countries. – Paris: OECD Publishing, 2007. – 222 p.

13. Robinson M. (ed.) Performance Budgeting: Linking Funding and Results. – Basingstoke: Palgrave Macmillan; Washington: International Monetary Fund, 2007. – 528 p.

14. Diamond J. From Program to Performance Budgeting: The Challenge for Emerging Market Economies: IMF Working Paper WP/03/169. – Washington: International Monetary Fund, 2003. – 22 p.

15. International Public Sector Accounting Standards Board (IPSASB). IPSAS 47 – Revenue. – New York: International Federation of Accountants, 2023.

16. Universities UK. Statement of Recommended Practice: Accounting for Further and Higher Education. 2019 Edition. – London: Universities UK, 2018.

17. Governmental Accounting Standards Board. Statement No. 35: Basic Financial Statements – and Management’s Discussion and Analysis – for Public Colleges and Universities. – Norwalk: GASB, 1999.

18. Ostonokulov A.A. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish: monografiya. – Toshkent: «VNESHINVESTPROM», 2021. – 208 b.

19. Norquchqorov A.Z. Davlat sektoridagi oliy ta’lim muassasalarda smetalar ijrosi hisobi va hisobotini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent: TDIU, 2025.

20. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. 2013-yil 26-dekabr, O‘RQ-360-son (keyingi o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/2304138

21. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni (yangi tahrir). 2016-yil 13-aprel, O‘RQ-404-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz

22. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining «O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (2-sonli BHS) «Yagona schyotlar rejasi»ni tasdiqlash to‘g‘risida»gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3078, 2018-yil 20-oktabr; 2025-yil 11-fevraldagi 232-son buyruq tahririda) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz

23. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining «O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (3-sonli BHS) «Budjet hisoboti»ni tasdiqlash to‘g‘risida»gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3124, 2019-yil 18-yanvar; keyingi o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/acts/-4176111

24. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining «Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida»gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2169, 2010-yil 22-dekabr; keyingi o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan)

25. IPSASB. IPSAS 24 – Presentation of Budget Information in Financial Statements. – New York: IFAC, 2024.